



A model for developing students' communicative competence in English based on news texts

Kamola ABDUJABBOROVA ¹

Journalism and Mass Communications University of Uzbekistan

ARTICLE INFO

Article history:

Received February 2025

Received in revised form

10 March 2025

Accepted 25 March 2025

Available online

25 April 2025

Keywords:

English language education,
interactive methods,
oral speech,
written speech,
learning model,
language learning.

ABSTRACT

This article discusses the issue of developing students' communicative competence through the effective use of news texts in English language education. The author focuses on activating students' speech activity and improving oral and written speech skills through texts based on current information in teaching English. The study describes the didactic possibilities of news texts, the criteria for their selection, and the model of their integration into the educational process. The results of experimental work conducted on the basis of this model and their effectiveness are also analyzed.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss4/S-pp82-86>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Yangilik matnlari asosida talabalarni ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish modeli

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Ingliz tili ta'limi,
interaktiv usullar,
og'zaki nutq,
yozma nutq,
o'quv modeli,
til o'rganish.

Mazkur maqolada ingliz tili ta'limida yangilik matnlaridan samarali foydalanish orqali talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish masalasi yoritilgan. Muallif ingliz tilini o'rgatishda dolzarb axborotlar asosida tuzilgan matnlar vositasida talabalar nutq faoliyatini faollashtirish, og'zaki va yozma nutq malakalarini takomillashtirishga e'tibor qaratadi. Tadqiqotda yangilik matnlarining didaktik imkoniyatlari, ularni tanlash mezonlari, hamda o'quv jarayoniga integratsiyalash modeli tavsiflanadi. Shuningdek, mazkur model asosida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari va ularning samaradorligi tahlil qilinadi.

¹ Teacher, Journalism and Mass Communications University of Uzbekistan.

Модель развития коммуникативной компетенции студентов в английском языке на основе новостных текстов

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

преподавание
английского языка,
интерактивные методы,
устная речь,
письменная речь,
модель обучения,
изучение языка.

В статье рассматривается проблема развития коммуникативной компетенции студентов посредством эффективного использования новостных текстов в обучении английскому языку. Автор уделяет особое внимание активизации речевой деятельности студентов и совершенствованию их навыков устной и письменной речи посредством текстов, основанных на современных сведениях в области преподавания английского языка. В исследовании описывается дидактический потенциал новостных текстов, критерии их отбора и модель их интеграции в процесс обучения. Также анализируются результаты экспериментальных работ, проведенных на основе данной модели, и их эффективность.

KIRISH QISMI

Bugungi globallashuv jarayonida ingliz tilining xalqaro muloqot, fan, ta'lim, texnologiya va biznes sohalaridagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shu sababli, O'zbekistonda ham xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'qitish sifatini oshirish, uni amaliy kommunikativ vosita sifatida o'rgatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Til bilimini rivojlantirishda asosiy maqsad – o'rganuvchining chet tilida erkin fikr bildirish, axborotni tushunishi, muloqotda faol ishtirok etishidir. Buning uchun esa o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish ta'lim jarayonining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi[1].

Zamonaviy metodik yondashuvlar shuni ko'rsatmoqdaki, o'quvchilarda til ko'nikmalarini rivojlantirishda an'anaviy usullardan tashqari, hayotiy va dolzarb mavzular asosidagi matnlardan foydalanish samarali natijalar beradi. Ayniqsa, yangilik matnlari til o'rganish jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lib, ular talabalarga zamonaviy voqealardan xabardor bo'lish, real hayotga daxldor matnlar ustida ishlash, ijtimoiy va madaniy bilimlarini kengaytirish imkonini beradi. Bundan tashqari, yangilik matnlari o'zining axborotga boyligi, kontekstual mazmuni va dolzarbligi bilan talabalarni faol o'rganishga undaydi, ularning mustaqil fikrlashi va tahliliy yondashuvini shakllantiradi.

Mazkur maqolada ingliz tili darslarida yangilik matnlaridan foydalanish orqali talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan model ishlab chiqilgan. Ushbu modelda matn tanlash mezonlari, ulardan foydalanish bosqichlari, interaktiv usullar, hamda o'quvchilarning til ko'nikmalarini kompleks rivojlantirish mexanizmlari batafsil ko'rib chiqiladi. Model asosida olib borilgan tajriba-sinov ishlari va ularning samaradorligi orqali metodikaning amaliy ahamiyati isbotlab beriladi[4].

ASOSIY QISM

Chet tillarni o'rgatish bo'yicha zamonaviy metodik konsepsiyalar asosida kommunikativ kompetensiya — bu til vositasida samarali va mos muloqot qilish qobiliyatidir. Yevropa Kengashining CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) tizimida kommunikativ kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlarga ajratilgan: Lingvistik kompetensiya – grammatik va lug'aviy bilimlar; Sotsiolingvistik kompetensiya – muloqotda madaniy va ijtimoiy me'yorlarga amal qilish qobiliyati; Pragmatik kompetensiya – nutqni kontekst asosida to'g'ri tushunish va foydalanish qobiliyati[4].

Demak, samarali til o'rgatish uchun bu kompetensiyalarni uyg'un holda rivojlantirish zarur.

Yangilik matnlari o'zining real hayotga daxldorligi bilan ajralib turadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, BBC Learning English, VOA News, va Breaking News English kabi platformalarda beriladigan yangilik matnlari ingliz tilini o'rganishdagi eng samarali autentik materiallardan biri hisoblanadi (Larsen-Freeman, 2017). Shu bois, bunday matnlar asosida mashqlar tuzish o'quvchilarning tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish ko'nikmalarini kompleks rivojlantiradi[6].

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan model quyidagi bosqichlardan iborat:

1-bosqich: Matn tanlash

Yangiliklar mavzusi talabalar yoshi, qiziqishlari va til darajasiga mos bo'lishi kerak;

Matn hajmi, leksik va grammatik murakkabligi e'tiborga olinadi;

Matn madaniy mazmuni va neytralligi baholanadi.

2-bosqich: Tayyorlov ishlari

Yangi so'zlar va iboralar bilan ishlash;

Kontekstual tushunchalarni aniqlash;

Matnga oid savol-javoblar va kichik munozaralar.

3-bosqich: Interaktiv faoliyat

Rollar asosidagi o'yinlar (news presenter, reporter, witness);

Jamoaviy matn yozish (press release, short article);

Munozara va debatlar (Should social media be limited?).

4-bosqich: Refleksiya va baholash

Talabalar o'z fikrini yozma va og'zaki shaklda ifodalaydi;

Baholash mezonlari: aniq ifoda, grammatik to'g'rilik, mantiqiy izchillik, faol ishtirok.

4. Tajriba-sinov ishlarining natijalari

Toshkentdagi ikkita oliy ta'lim muassasasida o'tkazilgan tajriba-sinov darslari asosida quyidagi natijalar qayd etildi:

Ko'nikma turi	Dastlabki baho (%)	Sinovdan so'ng (%)
Tinglab tushunish	54%	78%
Og'zaki nutq	47%	74%

Ko'nikma turi	Dastlabki baho (%)	Sinovdan so'ng (%)
O'qish	60%	82%
Yozma nutq	51%	76%

Natijalar shuni ko'rsatadiki, yangilik matnlariga asoslangan yondashuv talabalar kompetensiyasining barcha yo'nalishlarda o'sishiga olib kelgan. Modeldan samarali foydalanish uchun quyidagi tavsiyalar beriladi: Yangilik matnlari bilan ishlash jarayoni muntazam va bosqichma-bosqich bo'lishi kerak; Matnlar asosida faqat lug'at o'rganish emas, balki muhokama, bahs, ijodiy faoliyat ham tashkil etilishi lozim; O'qituvchilar matnlarni tanlashda manbalar ishonchliligini, matnning neytralligini va siyosiy xolisligini hisobga olishlari kerak.

Zamonaviy til o'qitish jarayonida talabalar faqat til qoidalarini bilish bilan cheklanmasdan, uni real hayotiy vaziyatlarda erkin qo'llay olishlari zarur. Shu nuqtai nazardan, yangilik matnlaridan foydalanish — talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim va samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada ishlab chiqilgan model yangilik matnlarini tanlash, ularga tayyorgarlik ko'rish, interaktiv faoliyatlar va refleksiya bosqichlarini o'z ichiga olgan holda, talabalar til ko'nikmalarini kompleks rivojlantirishga yo'naltirilgan. Tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatdiki, yangilik matnlari asosida olib borilgan darslar talabalarni fikrlashga, izchil va to'g'ri nutq tuzishga, o'z fikrini asoslab bera olishga o'rgatadi. Ayniqsa, og'zaki va yozma nutqning faollashuvi, o'rganilgan lug'at boyligining faol qo'llanishi ijobiy natija sifatida qayd etildi [5].

Tavsiyalar

1. O'qituvchilar yangilik matnlarini tanlashda talabalarning yoshi, darajasi va qiziqishlarini hisobga olishlari kerak.
2. Dars jarayonida interaktiv usullar, rol o'yinlari, debatlar va jamoaviy topshiriqlarga keng o'rin berilishi lozim.
3. Baholash mezonlari aniq ishlab chiqilishi, u orqali har bir talabaga individual yondashuv ta'minlanishi muhim.
4. Yangilik manbalari ishonchli va o'quvchilarga moslashtirilgan bo'lishi zarur (masalan: BBC Learning English, VOA Learning English, Breaking News English).
5. Model oliy ta'limdan tashqari kasb-hunar maktablari va umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida ham qo'llanilishi mumkin.

XULOSA QISMI

Zamonaviy ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitishda asosiy e'tibor, nafaqat grammatik bilimlarni egallash, balki ularni real kommunikativ vaziyatlarda samarali qo'llay olishga qaratilgan. Bu esa o'z navbatida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishni taqozo etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yangilik matnlari asosida tuzilgan didaktik model ushbu maqsadga erishishda yuqori samaradorlikka ega.

Yangilik matnlari - zamonaviy mavzular, madaniy va ijtimoiy kontekstga boy, real til muhitini aks ettiruvchi vosita sifatida talabalarni tilga nisbatan qiziqishini oshiradi, ularning tanqidiy fikrlash, tahlil qilish, fikr bildirish va asoslash ko'nikmalarini

shakllantiradi. Shuningdek, matnlar asosida tuzilgan interaktiv topshiriqlar (rol o'yinlari, debatlar, guruhli muhokamalar) orqali tinglab tushunish, o'qish, og'zaki va yozma ifoda ko'nikmalari uyg'un holda rivojlanadi.

Ishlab chiqilgan model bosqichma-bosqich yondashuv asosida talabalarni faollashtirishga, mustaqil fikrlashga undaydi va real kommunikativ vaziyatlarda o'zini erkin tutishga tayyorlaydi. Tajriba-sinov natijalari esa ushbu metodikaning samaradorligini ilmiy jihatdan isbotladi: talabalar o'zlashtirish ko'rsatkichlari va kommunikativ faolligi sezilarli darajada oshdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, PQ-5117-son, 2021-yil 19-may: "Xorijiy tillarni o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".
2. Abdujabborova, K. (2025). METHODOLOGY OF ENGLISH LANGUAGE TEACHING TO JOURNALISM STUDENTS: EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 12(02), 42-46.
3. Abdujabborova, K. (2025). O'ZBEKISTON OLIY TALIM MUASSASALARIDA JURNALISTIKA YO'NALISHIDAGI TALABALARIGA INGLIZ TILI O'QITISH AMALIYOTI. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 4(4), 97-99.
4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching (3rd ed.). Cambridge University Press.
5. Council of Europe. (2020). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment (CEFR Companion Volume).
6. Larsen-Freeman, D. Techniques and Principles in Language Teaching (2nd ed.). Oxford University Press. 2008.
7. Harmer, J. (2015). The Practice of English Language Teaching (5th ed.). Pearson Education.
8. Brown, H. D. (2007). Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy (3rd ed.). Pearson Education.
9. Nunan, D. (2004). Task-Based Language Teaching. Cambridge University Press.
10. Toshtemirovna, T. N. (2025). AUDIOVIZUAL JURNALISTIKADA ESTETIKA VA AXBOROTNING TA'SIRI. Научный информационный бюллетень, 6(2), 31-35.
11. Abdujabborova, K. (2025). O'ZBEKISTON OLIY TALIM MUASSASALARIDA JURNALISTIKA YO'NALISHIDAGI TALABALARIGA INGLIZ TILI O'QITISH AMALIYOTI. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 4(4), 97-99.
12. Камола Абдужабборова. Журналистика йуналиши талабаларига инглиз тили укутиш методикаси: хорижий давлатлар тажрибаси, O'zbekiston olimlarining ilmiy-amaliy tadqiqotlari. 2025/1